



O'ZBEK TILIGA DAVLAT TILI
MAQOMI BERILGANLIGINING
35 YILLIGIGA BAG'ISHLANGAN

"FILOLOGIK TADQIQOTLAR: MUAMMO VA YECHIM" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman **MATERIALLARI**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA JURNALISTIKA KAFEDRASI

**FILOLOGIK TADQIQOTLAR:
MUAMMO VA YECHIM**

**mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman
materiallari**

Buxoro, 21-oktabr, 2024-yil

“Filologik tadqiqotlar: muammo va yechim” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Buxoro, 2024. – 136 b.

Mas’ul muharrir

**filologiya fanlari doktori (DSc),
professor Abuzalova M.K.**

**filologiya fanlari doktori (DSc),
professor Yuldasheva D.N.**

Taqrizchilar

**filologiya fanlari doktori (DSc),
professor Rajabov D.Z.**

**filologiya fanlari nomzodi,
dotsent Asadov T.H.**

**To‘plovchi va nashrga
tayyorlovchilar**

**filologiya fanlari bo‘yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent Ahmadova U.Sh.**

**filologiya fanlari bo‘yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent Hamroyeva M.R.**

Mazkur to‘plamga kiritilgan maqola va tezislarining mazmuni, ularda keltirilgan ma’lumotlar, bildirilgan fikr-mulohazalarga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

manbayi hisoblanadi. Aytish joizki, ularni ayri tahlil qilish masala mohiyatidan uzoqlashishga olib keladi.

Til – beminnat ne'mat. U shoh uchun ham, gado uchun ham, yaxshi yoki yomon uchun ham birdek xizmat qilaveradi. Shu boisdan maqolada perifrazalarning huquqbuzarlar va huquqbuzarlikka qarshi kurashuvchilar nutqidagi ifodasini ham tahlilga tortishni joiz deb bildik. Huquqbuzarlikka qarshi kurashuvchilar nutqidagi perifrazalarda imkon qadar **g'ayriijtimoiy xulq-atvorlilar**, huquqbuzarlikka moyillarga nisbatan qo'llangan tasviriy ifodalarni tahlilga tortishga urindik. Jumladan: *Afsuski, jamiyatimizda korruptsiya illati o'zining turli ko'rinishlari bilan taraqqiyotimizga g'ov bo'lmoqda. Bu yovuz baloning oldini olmasak, haqiqiy ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaratib bo'lmaydi* (Murojaatnoma. 25.01.2020).; «Korrupsiya» atamasi lotincha «*corrutio*» so'zidan olingan bo'lib, «buzish», «sotib olish» ma'nolarini anglatadi. Ushbu illat **ijtimoiy taraqqiyot kushandasi, davlatchilikni ichidan yemiruvchi dushmandir**. Korrupsiya bor joyda rivojlanish sekinlashadi. Demak, taraqqiyotni istagan xalq, davlat korrupsiyani yengishi lozim. Darhaqiqat, korrupsiya darajasi past bo'lgan Daniya, Shvetsiya, Finlyandiya kabi davlatlarda yuqori turmush darajasiga erishilgani fikrimizni tasdiqlaydi ("Postda", 2017. № 10).; *Shu bilan birga, meni juda qattiq tashvishga soladigan va bezovta qiladigan eng og'ir illat – korrupsiya balosini yo'qotishda ham ular samarali vositadir* (Murojaatnoma. 25.01.2020).; *U ba'zan «Asadbekni odam qilgan menman, shuning xizmatida yurmaganimda, allaqachon toj kiyib, qonundagi o'g'rilar*ning zo'ri bo'lardim», deb o'ylardi. Biroq uning kalta aqli **“Qonundagi o'g'ri** martabasiga yetish uchun ham farosat kerak”, degan haqiqatni hazm qila olmas edi (T.Malik. Shaytanat, 2-jild. 172-b.).

Keltirilgan misollar – korrupsiya illati, yovuz balo, ijtimoiy taraqqiyot kushandasi, davlatchilikni ichidan yemiruvchi dushman, eng og'ir illat (poraxo'rlik); qonundagi o'g'rilar (jinoyat olamida haqlikni talabni etish uchun murojaat qilinadigan shaxslar) kabilar **huquqbuzarlikka qarshi kurashuvchilar, huquqbuzarlikka moyillar** nutqidagi perifrazalar hisoblanadi.

Huquqbuzarlar nutqidagi perifrazalar. Bu siraga allaqachon jinoyatga qo'l urib jazosini olayotganlar (yoki olganlar) nutqiga xos perifrastik birliklarni kiradi. Jumladan: *Mahkum shaxslarning kelgusida ijtimoiy hayotga moslashuvi uchun ko'mak berish maqsadida jazoni ijro etish muassasalarida masofadan turib ta'lim olish tizimini joriy etish lozim* ("Postda", 2018. № 71).; *Mamlakatimizda amnitsiya munosabati bilan jazoni o'tash makonidan yengil turdagi jinoyatchiliklar bilan shug'ullangan ayrim shaxslar ozod qilindi* ("Zamon" axborot dasturidan).; *O'zbekistondagi o'zgarishlar, dunyodagi globallashuv jarayonlaridan har kim turli maqsad va manfaatlarini yuzasidan ishlarni amalga oshirmoqda. Shu jumladan, ayrim qora niyatli guruhlar nobop yo'llar bilan 5 grammligacha qora dorini sotish bilan shug'ullangan vaqtda qo'lga olindi* ("Zamon" axborot dasturidan).; *Foniy olamdagi odamlarning barmoq izlari bir-biriga o'xshamagani kabi, ularning dunyoni ko'rishlari, fahm etish darajalari ham turlicha.*

«Qassob»ning jinoyat «xalta»sida (hujjatlarning dalolatiga qaraganda) o'n yetti ayolning joni bor (T.Malik. Shaytanat, 2-jild. 31-b.).; *«Oqqush qo'shig'i» – demak, o'lim darakchisi.* Shubhasizki, Mamatbey maqtovinini keltirgan «gardash» Xongireyning odami. Restoran ham uniki. **Oqqush qo'shig'ining** ma'nosini bilib, tushunib qo'yganlarmi yo bu bir tasodifmi? Yo bu yer Xongirey hukmi ado etiladigan maskanmi? Bu restoranga mehmon bo'lib kirib, murda bo'lib chiqilmaydimi? (T.Malik. Shaytanat, 2-jild. 96-b.); *O'g'rilar jinoyat olamining eng yuqori tabaqalaridan hisoblanishadi va ularni ruslarda «Svetnaya mast» deb atash rasm bo'lgan, o'zbekchasiga toj guli deb atashadi* (T.Malik. Shaytanatning jin ko'chalari, 540-b.).

Huquqbuzarlar nutqidagi perifrazalar sirasiga allaqachon jinoyatga qo'l urib jazosini olayotganlar (yoki olganlar) nutqiga xos – jazoni ijro etish muassasasi, jazoni o'tash makoni (qamoqxona), qora niyatli guruhlar (jinoyatchilar), jinoyat xaltasi (o'n yetti ayolning joni), oqqush qo'shig'i (o'lim darakchisi), toj guli (o'g'rilar) kabi perifrastik birliklar kiradi.

Yuqorida keltirilgan barcha misollar tasviriy ifoda (perifraza)lar bo'lib, ular badiiy tasvir vositasi sifatida xizmat qiladi. Tahlillar davomida biz perifrazalar sifatida keltirganlarimizning ba'zilar evfemizmlar lug'atlarida uchrashiga ham guvoh bo'ldik. Aytish joizki, ba'zi perifraza va

ayrim evfemik ifodalar bir-biriga o'xshaydi. Ammo tasviriy ifodalarda shaxs, narsa-buyum, joy va boshqa nomlarni oydinlashtirish, nutqiy g'alizlikning oldini olish maqsadi qo'yiladi, ya'ni oddiy (ba'zan neytral) so'z obrazli, ta'sirchan qilib ifodalanadi. Evfemizmlarda esa ishlatilishi qo'pol, noqulay, beodob so'z va birikmalar nutqiy jarayon uchun qulay, odob doirasidagi, chiroyli so'z yoki so'z birikmalariga almashtiriladi.

Shuningdek, perifrastik birliklarni jargon va argo kabi lingvistik birliklardan hamfarqlashimiz lozim. Jargon va argolar – juda tor doiradagi ijtimoiy guruh va to'dalar nutqidagina boshqalardan ajralib o'z maqsadlari yo'lida tuzilgan, qo'llanadigan so'zlar va iboralardir. Masalan, *danap* – *ayol o'yinchi (otarchilar nutqida)*, *xashpakchi* – *doirachi (otarchilar nutqida)*, *novcha* – *aroq (ichuvchilar nuqida)*. Argo va jargonlar tor doirada qo'llanuvchi, salbiy bo'yoqdorlikka ega bo'lgan birliklar bo'lib, ularda yashirish maqsadi yotadi. Perifrazalar esa jamiyat ahlining barcha vakillari uchun xos va tushunarli, ijobiy bo'yoqdorlikka ega bo'lgan birliklar hisoblanib, unda qaytanomlash, omma uchun tushunarli bo'lgan tasviriy ifodalardan foydalanish maqsadi yotadi.

Demak, perifrazalar badiiy bo'yoqdor birlik bo'lib, o'z tasviriy ifodasiga ega bo'lgan so'z (obyekt; tushuncha; birlik) bilan teng qo'llanilaveradi (masalan, *jamiyatning o'zagi* – *oila*, *tiriklik manbayi* – *suv*, *farovon hayot bunyodkori* – *fermer*, *ipakchilar*, *hunarmandlar yurti* – *Farg'ona*, *kulollar yurti* – *Rishton* va boshqalar).

Perifraza orqali perlokutsiya o'tkazish ya'ni tinglovchi ongi, ruhi, his-tuyg'ulari, harakatlariga ta'sir qilish ancha oson va tez kechadi.

Xulosa shuki, tasviriy ifoda (perifraza)lar bitta tushunchani ifodalaydigan, bir so'zni ikkinchi yangi bir mos birlikka almashtiradigan, matndagi so'zni leksik ma'no qirrasida obrazli tasvirlash orqali uning ta'sir doirasini oshirish va shu asosda nutqni usluban diqqat tortar, jozibador butunlik darajasiga ko'tarish xususiyatiga ega bo'lgan nutqiy hodisadir.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o'ttiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi"// 2019-yil, 21-oktabr// <http://uza.uz/oz/politics/>
2. "Sobiq ittifoq hududidagi aksar respublikalarda filologiya yangi o'zanlarga tushib oldi. Bizdachi?"//Professor bilan suhbat <https://kun.uz/news/2019/09/05/>
3. Umidaxon A. PERIFRAZA VA SO'Z //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – T. 8. – №. 8.
4. Ahmadova, Umidaxon Shavkat Qizi. "“PERIFRAZA” ATAMASI VA UNING NOMLASHDAGI O'RNINI." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 1.8 (2021): 431-442.
5. Sh A.U. Types of periphrases according to social-professional classification //The American Journal of Social Science and Education Innovations, ISSN. – C. 318-325.
6. Юлдашева Д. Нуткий мулоқотда сукутнинг ўрни //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2020. – №. 1
7. Hamroyeva M. R. LEBY LAYERS OF NAMES USED IN THE ARTISTIC WORKS OF TAHIR MALIK //Innovative Development in Educational Activities. – 2023. – T. 2. – №. 9. – C. 367-373.

AREAL LINGVISTIKANING METODOLOGIK VA METODIK ASOSLARI

Ahmedov A.R.,

BuxDU professori, filologiya
fanlari nomzodi

Annotatsiya. Areal lingvistika tilshunoslikka oid ilmiy tadqiqot yo'nalishi hisoblanadi. Demak, uning o'ziga xos tadqiq metodologiyasi va metodi mavjud. Arealogiyaning tadqiq manbayi qiyosiy tilshunoslik tadqiq manbayi va uning tadqiq usuli bilan umumiylikka ega. Arealogik tadqiqotlar lingvistik xaritalarni vujudga keltirishga xizmat qiluvchi manbalar jumlasidandir.

Kalit so'zlar: *metodologiya, metod, yo'nalish, areal lingvistika, qiyosiy, tilshunoslik, qiyosiy-tarixiy tilshunoslik, lingvistik atlas*

Arealogiyada o'ziga xos tadqiq metodi, ya'ni ish usuli va o'ziga xos tadqiq obyekti borligini ko'pgina olimlar inkor etadilar. Ularning fikrini to'la to'kis asosli deb aytish mumkin emas. Chunki arealogiya tadqiq manbayi sifatida adabiy til va shevalarda u yoki bu lisoniy birlikning tadqiqi bilan ish ko'radi. Bu jihatdan uning tadqiq manbayi adabiy til va sheva unsurlarining tadqiqi va tavsifi bilan ish ko'radi. Ikkinchi tomondan, arealogik tadqiqotda adabiy til va sheva hodisalari qiyoslanadi. Bu jihatdan arealogiyaning tadqiq manbayi qiyosiy tilshunoslik tadqiq manbayi va uning tadqiq usuli bilan umumiylik hosil qiladi. Qiyosiy va tavsifiy – sinxronik tilshunoslik tadqiq manbayi va usuli bilan areal lingvistikaning tadqiq manbayi hamda usulida bunday umumiylikning mavjudligi, arealogiyaning o'z tadqiq manbayi va usuli (metodi) borligini ko'rsatadi. Shuning uchun ulaning har biri alohida bir geometrik shakl (butunlik)lar sistemasidir).

Qiyosiy tilshunoslik, tarixiy tilshunoslik, areal lingvistika lisoniy hodisalarning tadqiq va tavsifiga atomistik usul (lisoniy hodisani sistemadan uzilgan holda) bilan yondashadi. (Jumladan, «a» ma'lum bir pozitsiyada «o»ga o'tishi; qaratqich va tushum kelishigi qo'shimchasining shaklan farqlanmasligi yoki o'rin-payt kelishigi qo'shimchasi o'rnida jo'nalish kelishigi qo'shimchasining qo'llanilishi bir-biriga bog'liq ravishda emas, balki alohida-alohida hodisalar sifatida tadqiq va tavsif etiladi). Shuningdek, qiyosiy tilshunoslikda alohida-alohida olingan lingvistik hodisalar arealogiyada ham qiyoslanadi. Lekin arealogik tadqiqotda makon tushunchasi ham mavjud. Arealogik makon dialektologik makon tushunchasidan batamom farq qiladi. Dialektologiyada makon tushunchasi tom ma'noda ma'lum bir hudud, mintaq, geografik hudud bilan mos keladi (masalan: Buxoro shevasi, Navoiy shevasi). Dialektologik tadqiqotda bir makondagi turli xil til birliklarining bir davrda bir butunlikning tarkibiy qismlari sifatida yashashi tadqiq etiladi. Areal lingvistikada bir hodisaning turli hudud va mintaqalarda tarqalishi diqqat markazida turadi. Shuning uchun arealogik makon dialektologik (geografik) makondan tubdan farq qiladi (chunonchi: tushum va qaratqich kelishiklarining shaklan mos kelishi O'zbekistonning qarluq-uyg'ur shevalari uchun xos deb talqin etilsa, bu hodisaning areali sifatida O'rxun-Enasoy, qumuq va yoqut tillari tarqalgan mintaqalar nazarda tutiladi. Chunki bu hodisa mazkur tillarda ancha keng tarqalgan). Shuning uchun areal lingvistikada makon deganda geografik hudud emas, ma'lum bir hodisaning tarqalish hududi (hududlari) tushuniladi.

Dialektologiyada hodisa makon orqali (ya'ni, shu mintaqada qanday til hodisalari bor) tavsiflansa, areal lingvistikada makon hodisa orqali beriladi (ya'ni, bir hodisaning turli tarqalish makonlari). Boshqacha qilib aytganda, dialektologiyada bir makondagi turli hodisalar (makon – umumiy, hodisalar – xususiy) tadqiq etilsa, arealogiyada bir hodisaning turli makonlari (hodisa – umumiy, hududlar – xususiy) o'rganiladi.

Areal tadqiq usulining qiyosiy, xususan, qiyosiy-tarixiy tilshunoslikdan farqi shundaki, qiyosiy tilshunoslikda tipologik o'xshash va noo'xshash hodisalar qiyoslanaveradi. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikda esa faqat o'zaro o'xshash hodisalar turli davrlar asosida qiyoslanadi. Areal lingvistikada esa bir hodisaning ma'lum bir davrdagi o'xshashligi tadqiq etiladi (Shu hodisaning turli davrlardagi o'xshashligi tarixiy arealogiyada o'rganiladi). Areal lingvistikaning tadqiq usuli va manbayida bo'lgan bunday farqlar uning tavsifiy, qiyosiy, tarixiy tilshunosliklar bilan bir qatordatil haqidagi fanning o'ziga xos alohida tarmog'i mavqeyida ekanligini asoslaydi. Shunday qilib, areal lingvistikaning tadqiq manbayi va tadqiq metodini quyidagicha ta'riflash mumkin:

Areal tadqiqotlarning manbayi sifatida ma'lum bir davrda olingan lisoniy hodisa (qonuniyat)ning qarindosh va yondosh tillar amalda bo'lgan turli hududlarni aniqlash hamda bu hududlarni bir arealga, lisoniy hodisaning tarqalish maydoniga birlashtirishdir. Uning tadqiq usuli sifatida turli mintaqalardagi til shevalarida o'xshash hodisa (qonuniyat)larni aniqlash va ularning qo'llanilish maydonini aniq belgilashdan iboratdir. Bundan tashqari areal lingvistikaning oldida ma'lum bir hodisa (qonuniyat)ning tug'ilishni, vujudga kelish markazini, uning turli yo'nalishlarga tarkalishini (irraditsiyasini) va bu hodisaning turli mintaqalardagi o'ziga xosligini (innovatsiyalarini) belgilash vazifasi ham turadi.

Areal lingvistika asosiy tushunchalari va ish usullaridan bir izoglossa (gr. isos o'xshash, bir xil va gr. glossa til hodisasi) ayni bir lisoniy hodisaning tarqalish chegaralarini belgilovchi chiziq, hudud chegaralaridir. Izoglossalar bilan uzviy bog'liq xaritalash va lisoniy (lingvistik) atlaslar